

GENDER TENGLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMI, OILAVIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIIY ONG TRANSFORMATSIYASINING O'RNI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-302-305>

Nurmetova Fazilat Ilhomovna

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy axborot kommunikatsiyalar universiteti
Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti Siyosiy fanlar
kafedrası katta o'qituvchisi*

Norboyeva Jasmina Ro'ziboyevna

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy axborot kommunikatsiyalar universiteti
Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti
O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada gender tenglik madaniyatini rivojlantirishning muhim omillari sifatida ta'lim tizimi, oilaviy qadriyatlar hamda ijtimoiy ong transformatsiyasi masalalari tahlil qilinadi. Unda gender tenglikni ta'minlashda oilaning asosiy ijtimoiy institut sifatidagi o'rni, farzandlar tarbiyasida tenglik va o'zaro hurmat tamoyillarini shakllantirishning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida gender stereotiplarini bartaraf etish, teng imkoniyatlarga asoslangan inklyuziv muhit yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy ongda o'zgarishlar gender tenglik g'oyalarining jamiyatda barqaror qaror topishida muhim omil ekani asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari gender tenglikni ta'lim siyosati, oilaviy tarbiya va jamoatchilik ongida kompleks ravishda rivojlantirish jamiyatning barqaror va adolatli taraqqiyotiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: gender tenglik, ijtimoiy o'zgarishlar, inklyuziv ta'lim, ayollar huquqi, ma'naviy meros, oila instituti, ijtimoiy ong.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются ключевые факторы развития культуры гендерного равенства с акцентом на систему образования, семейные ценности и трансформацию общественного сознания. Подчеркивается роль семьи как основного социального института в формировании принципов равенства и взаимного уважения в процессе воспитания детей. Особое внимание уделяется устранению гендерных стереотипов в системе образования и созданию инклюзивной среды на основе равных возможностей. Обосновывается, что изменения в общественном сознании являются необходимым условием устойчивого утверждения гендерного равенства в обществе. Результаты исследования свидетельствуют о том, что комплексный подход, интегрирующий образовательную политику, семейное воспитание и общественное информирование, способствует формированию справедливого и устойчивого общества.

Ключевые слова: гендерное равенство, социальные изменения, инклюзивное образование, права женщин, духовное наследие, институт семьи, общественное сознание.

ABSTRACT

This article analyzes the key factors in developing a culture of gender equality, focusing on the education system, family values, and the transformation of social consciousness. It emphasizes the role of the family as a primary social institution in fostering equality and mutual respect in child upbringing. Particular attention is paid to eliminating gender stereotypes in education and creating an inclusive environment based on equal opportunities. The article

argues that changes in social consciousness are essential for the sustainable establishment of gender equality in society. The findings demonstrate that a comprehensive approach integrating education policy, family upbringing, and public awareness significantly contributes to building a just and sustainable society.

Keywords: *gender equality, social change, inclusive education, women's rights, spiritual heritage, family institution, social consciousness.*

Hozirgi globallashuv, modernizatsiya va demokratik islohotlar sharoitida gender tenglik masalasi jamiyat taraqqiyotining eng muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof e'tilmoqda. Ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash nafaqat inson huquqlarini himoya qilish, balki ta'lim sifati, ijtimoiy adolat, iqtisodiy rivojlanish va barqaror jamiyatni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Amerikada “Gender” tushunchasini ilk bor 1955-yilda olim Jon Money odamlarni o'rganishga bag'ishlagan asarida biologik jins va ijtimoiy rol o'rtasidagi terminalogik farqlash uchun ishlatgan. Bu tushuncha ayrim manbalarda erkaklar va xotin-qizlar tengligi — insonning asosi huquqlaridan biri ekanligi ta'kidlangan. Zamonaviy jamiyatda gender tenglik madaniyatining yetarli darajada shakllanmasligi ta'lim jarayonida stereotiplar, ijtimoiy faollikning cheklanishi va imkoniyatlarning teng taqsimlanmasligiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, ta'lim tizimi gender tenglik g'oyalarini singdirish va mustahkamlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Chunki shaxsning dunyoqarashi, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi asosan ta'lim va tarbiya jarayonida shakllanadi. Shu bilan birga, oilaviy qadriyatlar ham gender tenglik madaniyatining poydevori bo'lib, farzandlarda tenglik, hurmat va hamkorlik kabi fazilatlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy ong transformatsiyasi esa ushbu jarayonlarning jamiyat miqyosida barqaror qaror topishini ta'minlaydi. Mazkur tadqiqotning obyekti jamiyatda gender tenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonidir. Tadqiqotning predmeti esa ta'lim tizimi, oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy ongning gender tenglik madaniyatiga ta'sir etuvchi o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi gender tenglik madaniyatini rivojlantirishda ta'lim siyosati, oilaviy tarbiya va ijtimoiy ong transformatsiyasining o'rni hamda ahamiyatini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Gender tenglik masalasi zamonaviy fanlarda keng o'rganilayotgan dolzarb mavzulardan biridir. Xususan, xorijiy olimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda gender tenglikning ta'lim tizimi, ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali shakllanishiga ta'siri chuqur tahlil qilingan.

O'zbekiston 2019-yildan boshlab gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida ishtirok eta boshladi. 2019-yil holati ko'ra, O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi ekspertlarining fikricha, O'zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8%ni tashkil qilgani ma'lum qilingan edi. Mazkur ko'rsatkichlar yildan yilga oshib borayotgani

mamlakatning kelajak taqdiriga salbiy ta'sirini o'tkazadi. YUNESKO Statistika instituti tadqiqotlariga ko'ra, qizlar matematika fani bo'yicha o'g'il bolalar kabi ijobiy yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, bu soha olimlarining faqat 30 foizini ayollar tashkil etar ekan.[1] Bugungi kunda O'zbekiston ilm-fan sohasidagi ayollar ulushi 48%ni tashkil etmoqda.[2]

Bundan tashqari mazkur tushunchaga qonunda “So‘nggi to‘rt yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta‘minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi” [3] deya aytilib, milliy qonunchiligimizga yangilik sifatida qayd etildi. Shuningdek, ushbu qonunda “gender siyosati amalga oshirilishini ta‘minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar”, “gender statistikasi”, “gender-huquqiy ekspertiza” kabi tushunchalari ham kiritilgan. Demak, gender tengligi masalasiga mamlakatimizda alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bizga tarixdan ma'lumki, xalqimiz ayollarga alohida e'tibor va ehtirom ko'rsatish odatlari avloddan avlodga o'tib kelgan va bunga barcha birdek amal qilgan. Turon zaminida ilk oilalarning birlashganiga ham onalar sabab bo'lgan. Ona atrofida oila a'zolari jamlangan. Shundan buyon ayollarni mo'tabar zot deb e'zozlanadi. Hattoki, ularga Vatanni “ona vatan”, “ona yurt” deya qiyoslanadi. Darhaqiqat, yillar davomida ongimizga singib kelgan ibora: “onani sevmoklik – Vatanni sevmoklikdir”. Uyimizning to'rida otamizning yaxshi va yomon kunida, dardu tashvishlarini aritishda yonida bo'lishi, ro'zg'or yukini tortishda ham onalarimizning xizmatlari borligini har bir inson shubhasiz yaxshi anglaydi. Bu odatlar ota-bobolarimizdan qolgan merosdir. Onalarning duolari ota va farzandlar salomatligiga qaratilganligida ham ko'p ma'noli hikmat mujassam. Muqaddas qo'rg'on bo'lmish oilalarning mustahkamligi bevosita ona duolarining ijobati-yu, ayollarning sabr-u qanoatiga bog'liq bo'ladi. Mazkur sabrning suiste'mol qilinishi natijasida qo'rg'onning tinchi buziladi. Bu qo'rg'onda ayol va erkakning tengligidan ko'ra onaning e'zozlanishi yuqori o'rinda turadi. Har bir oila a'zosining shirin so'zi va e'tibori asosa unga qaratiladi. Shunday masalalarda gender tenglik tushunchalari biroz chekinadi. Chunki ayol tabiatan nozik hilqat, jismonan kuchsizroq yaratilgan. Ro'zg'orning og'ir yumushlari uning yelkasiga vazminlik qiladi. Shu sababli Yaratguvchi erkak va ayol bir-birini to'ldirib turuvchilar deya ularni nikoh bilan bog'lanib butun oila bo'lib yashashga buyurgani bejizga emas, albatta. Zero, nikoh ikki jins vakilining o'zaro bir biriga muhabbati asosida qurilishi oilaning mustahkamligini ta'minlaydi.

Hozirgi kunga kelib, oliy ta'lim tizimida 1 652 407 nafar talabalar tahsil olayotgan bo'lsa, bulardan 45,62%ini erkaklar, 54,38%ini ayol-qizlar tashkil qilmoqda. [4] Bu ko'rsatkichlarda bilishimiz mumkinki, ota-onalar qizlarining ta'lim olishiga befarq emas. Qizlarning ta'lim olayotgani mamlakatning kelajagi bilimli avlodlar ko'payayotgani va oilalarda ilm-fanga e'tibor kuchayib borayotganidan dalolatdir. Shu o'rinda ma'rifatparvar jadid Abdrauf Fitrat xotin-

qizlarimizning o'qimishli bo'lishi kelajak avlodlarimizning nodon va johil, tarbiyasiz bo'lmasliklari hamda farzand tarbiyasidan xabardor bo'lishlari [5.79] uchun zarurligini aytib o'tgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yetti yilda O'zbekistonda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 27%dan 35%ga, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 32%i, Senat a'zolarining 25%i ayollardan iborat. Ayniqsa, ishbilarmon ayollar safi ikki barobarga oshgan hamda o'z biznesini yo'lga qo'ygan ayollar soni 205 mingdan ortiqni tashkil etmoqda. Yuz minglab ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitilgan. Salkam yarim million nafar xotin-qizlar ish bilan ta'minlangan.

Shu bilan birga mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat tadqiqotlarda gender tenglik alohida yo'nalishlar — ta'lim, huquqiy siyosat yoki ijtimoiy munosabatlar doirasida o'rganilgan. Ta'lim tizimi, oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy ong transformatsiyasini yagona, o'zaro bog'liq tizim sifatida kompleks tahlil qilish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqolaning o'ziga xosligi shundaki, unda gender tenglik madaniyatini rivojlantirish masalasi ta'lim siyosati, oilaviy tarbiya va ijtimoiy ong transformatsiyasi uyg'unligida tahlil qilinadi. Ushbu uch omilning o'zaro ta'siri asosida gender tenglikni qaror toptirish mexanizmlari yoritilib, mavjud tadqiqotlardan farqli ravishda kompleks va tizimli yondashuv ilgari suriladi.

Xulosa qilib aytganda, gender tenglik madaniyatini rivojlantirish jamiyatning barqaror ijtimoiy va madaniy taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Tadqiqot natijalari gender tenglikning shakllanishida oilaviy qadriyatlar boshlang'ich asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatdi. Ta'lim tizimida gender yondashuvni joriy etish teng imkoniyatlar muhitini yaratib, yosh avlodning ijtimoiy faolligini oshiradi. Ijtimoiy ong transformatsiyasi esa an'anaviy stereotiplarni bartaraf etish orqali gender tenglikni kundalik hayot me'yoriga aylantiradi. Mazkur jarayonlarning o'zaro uyg'unligi jamiyatda adolat, barqarorlik va inson salohiyatining to'liq ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Олимова К. Илм улуглайди аёлни. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази. <http://nhrc.uz/uz/articles/ilm-ululajdi-aelni>
2. Усмонова Н. Илмли аёл – жамият кўзгуси. https://uza.uz/uz/posts/ilmli-ayol-zhamiyatkozgusi_688938
3. О'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-sonli . 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida <http://lex.uz/docs/-5466673>
4. А.Фитрат. Оила yoki оила boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – 112 bet